



O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA SOHA TERMINLARINING O'RGANILISHI

Xasanov Axmad Isa o'g'li

PhD

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

ahmadhasanov23@gamil.com

Annotasiya: *Ushbu maqolada tilshunoslikda termin tushunchasi yuzasida o'zbek tilshunosligidagi bir qator olimlarning fikrlari keltirilgan. Shunga asosan xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, so'z, atama, termin, tushuncha, konsept.*

Respublikamizning mustaqillikni qo'lga kiritishi boshqa sohalar kabi tilimizning rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yurtimizda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida olib borilgan keng miqyosdagi islohotlar tilimiz yanada ravnaq topishi uchun jiddiy izlanishlarga ehtiyoj mavjudligini namoyon etdi. Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar tilshunoslik sohasi oldiga bir qancha jiddiy masalalarni hal etish vazifasini qo'ydi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar fan-texnika taraqqiyotining tildagi aksi hisoblangan teminlarning badiiy uslubga oid matnlarda qo'llanish sabablarini tadqiq etishning terminologiyada zarurat ekanligini namoyon etdi.

Tilda mavjud har bir termin u yoki bu jihati bilan termin-so'z, temin-birikma kabi ilmiy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan ayrim birliklar bilan o'xshashliklar hosil qiladi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasi (jarayon) va uning nomi (termin) o'rtasidagi bog'liqlik faqat tushuncha orqali amalga oshiriladi. Termin ana shu ilmiy tushunchani nomlash vazifasini bajaradi. Muayyan fan yoki texnika tilini tadqiq etuvchi olimlar o'rganilayotgan matndagi hali o'z sohasiga oid lug'atlarda aks etmagan yangi terminni aynan uning bajaradigan vazifasi – ma'lum bir bilim sohasining maxsus tushunchasini nomlash asosida aniqlaydilar.

Zamonaviy tilshunoslikda terminni lingvistik kategoriya sifatida tushunish va o'rganishning asosiy muammolaridan biri uning ta'rifidir. Terminga berilgan ta'riflarining aksariyatida birinchi navbatda uning tushuncha (konsept) bilan aloqasi tilga olinadi. "Termin – maxsus bilim yoki faoliyat sohasiga oid tushunchani ifodalovchi so'z yoki birikma", "Termin – bu maxsus tushunchalarni aniq ifodalash uchun yaratilgan (qabul qilingan, olingan va hokazo) maxsus (ilmiy, texnik va boshqalar) so'z yoki birikma"[1,120] kabi.

Bugungi kunda kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlarda [3,304] esa termin tushunchadan ham kattaroq bo'lgan fenomen konseptga tenglashtiriladi. Kognitiv terminologiyaga ko'ra termin bilish (idrok) jarayonida tug'iladigan, shakllantiriladigan, dinamik hodisa bo'lib, tushunchadan – aqliy kategoriyadan –ma'lum bir nazariya bilan bog'liq bo'lgan og'zaki tushunchaga o'tishdan hosil bo'lgan tushunchadir [2,304].



Zamonaviy terminologiyaga oid ilmiy tadqiqotlarda terminning o'ziga xos bir qancha xususiyatlari qayd etilgan. Tilshunos olimlarning barchasi terminning ilmiylik xususiyatiga egaligi borasida bir xil fikr bildirgan. Darhaqiqat, terminning ilmiy-texnik tafakkur hosilasi bilan aloqadorligi uning asosiy belgilaridan biri. Bu xususiyat uni tilimizda keng tarqalgan qo'llanish doirasi chegaralanmagan so'zlar va boshqa turdagi maxsus leksik birliklardan ajratib turadi. Terminlarning qo'llanilish doirasi chegaralanmagan so'zlardan navbatdagi farqi – sistemalilik (tizimlilik) xususiyati, muayyan fan-texnika terminologiyasiga singib ketgan umumiy munosabatlar yoki "butun-bo'lak" kabi semantik munosabatlariga egaligi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, terminologik birlik yakka holda mavjud emas, balki muayyan sistema (tizim)da faoliyat yuritadi va boshqa leksemalar bilan sinonimik, antonimik kabi leksik-semantik aloqaga ega. Terminning sistemalilik xususiyati uning tarmoq terminlari tizimidagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi. "Hozirgi o'zbek tilidagi faol so'zlarning izohli lug'ati"da sistema (tizim)ga shunday izoh beriladi: "Tizim - umumiy belgilarga ko'ra birlashgan elementlar, birliklar majmui" [4,336].

F. de Sossyur tilga sistema sifatida ilk yondashgan olimdir. Uning ta'limotida "Til g'oyalarni ifodalovchi belgilar sistemasidir" deyiladi [4,336]. Shubhasiz, har qanday sistema o'zining komponentlariga nisbatan yirik butunlik, ichki birliklar esa sistemaning, ya'ni butunning qismidir. Qismlarning ham, o'z navbatida, tashkil etuvchilarga ajralishini inobatga olsak, ular ham o'z komponentlariga nisbatan sistemadir. Til yaxlit bir sistema bo'lib, o'ziga nisbatan qism, ayni chog'da, sistema talablariga javob bera oladigan tagsistemalar yig'indisidan iboratdir.

Demak, sistema, eng avvalo, aniq bir terminologik sistemaga xizmat qiluvchi maxsus so'zlarning lisoniy tartiblanganidir. Shundan kelib chiqib turli terminosistemalar milliy tilning leksik sistemasi doirasida mavjud bo'lgan va aniq-ravshan ifodalanuvchi leksik tagsistemalardir [6,122].

Uchinchi farqi shundaki, termin barqaror ta'rifga ega. Albatta, ta'rif termin mazmun ko'lamini to'g'ri belgilashga imkon beradi. Qo'llanish jarayonida har bir termin nutq vaziyati talabi bilan o'ziga kerakli bo'lgan ta'rifga ega bo'ladi. Masalan, matematika sohasida keng qo'llanuvchi ilmiy termin ildiz bilan biologik termin ildizning ta'rifi yoki aviasozlik sohasining ilmiy-texnik termini bo'lgan qanot va tilimizda keng qo'llanuvchi qanot leksemasining lug'atlardagi turlicha ta'rifi temin-leksemani o'zaro farqlashga xizmat qiladi. Ya'ni matematikadagi ildiz bilan biologik ildiz yoki aviatsiya sohasi teminlarining izohli lug'atida keltirilgan ta'rif bilan izohli lug'atdagi ta'rif qanot ning boshqa-boshqa xususiyatlarini yoritadi.

Terminga xos boshqa xususiyatlar to'g'risida esa olimlarning qarashlari bir-biridan farq qiladi. Biz terminning ilmiyligini e'tirof etgan holda unda quyidagi doimiy belgilarning borligini ta'kidlaymiz: 1) muayyan bilim sohasining ilmiy-texnik tushunchasi bilan chambarchas bog'liqligi; 2) termin va terminologik tizimning boshqa terminlar bilan sinonimik, antonimik, umumiy va integral munosabatlarda namoyon bo'lishi; 3) barqaror ta'rifga bo'lgan ehtiyoj.



Ma'lumki, termin ham boshqa leksik birliklar singari atash funksiyasiga ega. Termin – ilm-fan, texnikaning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi sanalgan so'z yoki so'z birikmasidir. Ushbu ta'rifga ko'ra va terminning funktsional xususiyatiga muvofiq u qisqa, aniq va bir ma'noli bo'lishi, ilmiy tushunchani, ya'ni muayyan soha tushunchasini ifodalay olish uchun xizmat qilishi kerak. Demak, termin terminologiya ilmining asosiy tushunchasi sifatida ilmiy fikrning oson anglanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алексеева Л.М. Проблемы термина и терминообразования. – Пермь, 1998. – 120 с.
2. Ивина Л.В. Лингво-когнитивные основы анализа отраслевых терминосистем (на примере англоязычной терминологии венчурного финансирования). М.: Академический проект, 2003. 304 с.
3. Лейчик В.М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. Изд. 4-е. М.: ЛИБРОКОМ, 2009. -С.21-22.
4. Hojiyev A., Nurmonov A. va boshq. Hozirgi o'zbek tilidafi faol so'zlarning izohli lug'ati. -Toshkent: Sharq, 2001. -B.336.
5. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Изд-во акад. Наук СССР 1961. – с.15-16; 72-79.
6. Шетле Т.В. Англоязычная терминология банковского дела в языковой системе и речевой практике: Дисс... канд. филол. наук. – М., 2010.
7. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Тр. Московского института истории философии и литературы. – М., 1939, т. V. – с. 5.
8. Гак В.Г. Ассиметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии // Сб.: Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики, ч.2, М., МГУ, 1971. – с. 68.
9. Кузьмин Н.П. Отглагольные существительные в специальной лексике (на материале лексики станкостроения, приборостроения и общего машиностроения)// Исследования по русской терминологии. – М.: Наука, 1971. – с.331.
10. Котелова Н.З. К вопросу о специфике термина // Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – М.: Наука, 1970. – С.124.
11. Khursanov D.B. Realization of metaphorical images in artistic chronotope. ISSN 2277-3630 (online), Published by International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 12 Issue: 01 in January-2023 <https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1544>